

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDAGI XAVFSIZLIK VA HAMKORLIKNI
TA'MINLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI (2016-2024)

Quchqarov Samandar Xomit o'g'li

O'zbekiston milliy universiteti tarix fakulteti tarix yo'nalishi

1-kurs magistranti jaxon tarixi kafedrası.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19287086>

Annotatsiya. Bugungi kunda Afg'oniston zaminida davom etayotgan notinch vaziyat natijasida jafokash afg'on xalqi azob-uqubatlarni boshidan kechirmoqda. Afg'onistonda yuz berayotgan notinch vaziyatni hal etishdan manfaatdor bo'lgan tomonlar yoki aksincha bunday vaziyatni davom etishidan manfaatdor bo'lgan kuchlar ham mavjud.

Buning asosiy sabablaridan biri sifatida, Afg'onistonning geografik joylashuviga ko'ra ham Markaziy Osiyo mintaqasining xavfsizlik va rivojlanish istiqbolida shuningdek, ikki mintaqaning bir-biri bilan bog'lanishida ko'priq vazifasini o'tashi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: "Shimoliy Alyans", Durand chizig'i, "UNODC", Tolibon, Markaziy osiyo, afg'onlararo muzokaralar, "Mustaqil Pushtuniston"

Аннотация. Сегодня в результате продолжающихся беспорядков в Афганистане страдает бедный афганский народ. Есть стороны, которые заинтересованы в урегулировании неспокойной ситуации в Афганистане, или, наоборот, есть силы, которые заинтересованы в сохранении такой ситуации.

Одной из главных причин этого является то, что из-за географического положения Афганистана Южная Азия также важна с точки зрения безопасности и развития Центрально азиатского региона, а также выступает в качестве моста между двумя регионами.

Ключевые слова: "Северный альянс", линия Дюранда, "УНП ООН", Талибы, Центральная и Южная Азия, меж Афганские переговоры, "Независимый Пуштунистан".

Abstract. Today, as a result of the ongoing unrest in Afghanistan, the poor Afghan people are suffering. There are parties who are interested in resolving the turbulent situation in Afghanistan, or on the contrary, there are forces who are interested in the continuation of such a situation.

One of the main reasons for this is that due to the geographical location of Afghanistan, South Asia is also important in terms of security and development of the Central Asian region, as well as acting as a bridge between the two regions.

Keywords: "Northern Alliance", Durand line, "UNODC", Taliban, Central and South Asia, inter-Afghan negotiations, "Independent Pashtunistan".

KIRISH

Afg'onistondagi doimiy tusga aylangan konfliktlarning yechimi hamda milliy birlik masalalarining dolzarbligi bugungi o'z yechimini topmay kelayotgan, o'z chegarasidan tashqari, mintaqa doirasida o'z ta'sirini saqlab qolayotgan masalalarda ko'rinmoqda. Muhim ichki muammolar bilan bir qatorda, Afg'onistondagi beqarorlik omili Markaziy Osiyo mintaqalari ichidagi va mintaqalararo o'zaro aloqalarni mustahkamlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ammo, ko'p yillik tajriba shuni ko'rsatadiki, Afg'oniston masalasida har ikki mintaqaviy davlatlari tomonidan haddan tashqari sek'yuritizasiyalangan (faqat xavfsizlik masalalariga yo'naltirilgan) tashqi siyosat yo'nalishini olib borish Markaziy Osiyo davlatlari manfaatlariga uchun konstruktiv natijalarni bera olmaydi.

Maqsad va vazifalar: Maqolaning maqsadi Afg'on omilining Markaziy Osiyo mintaqalaridagi xavfsizligida tutgan roli hamda xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini ochib berishdan iborat. Maqsaddan kelib chiqqan holda, ikkala mintaqaviy tomonidan amalga oshirilgan sa'y-harakatlarni va ishlarni tahlil qilish va xulosalar berish, huquqiy asoslari, hamkorlikning siyosiy jihatlari asoslash vazifalar sifatida belgilab olindi.

Usullar: Maqolada tarixiylik, tizimli-mantiqiy, kontent va qiyosiy usullardan foydalanildi.

Natija va mulohaza:

Afg'oniston muammosini desek'yuritizasiya qilish (faqat xavfsizlik masalalari bilan bog'lashdan chetlashish), sobiq AIRni kesib o'tadigan va Markaziy Osiyo hamda Janubiy Osiyo mintaqalarini bog'laydigan muhim infratuzilma loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirish Kaspiy dengizidan Hind okeanigacha bo'lgan keng mintaqaviy siyosiy, madaniy-gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyasiga turtki bo'lishi mumkin.

Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish istiqbollari qo'shni Afg'onistonda tinchlik o'rnatilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Barqaror, kutilmaydigan harakatlarni amalga oshirmaydigan va jadal rivojlanayotgan Afg'oniston Markaziy Osiyo o'rtasidagi muhim ko'priklarni, shuningdek zamonaviy sharoitlarda tarixiy Ipak Yo'lini tiklashda muhim rol o'ynashi mumkin.

Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlarining Afg'oniston mojarosini hal qilishdagi imkoniyatlarini real baholash, ushbu mamlakatda tinchlik o'rnatish va keng qamrovli mintaqalararo hamkorlikni yo'lga qo'yish muhimdir.

Markaziy Osiyo o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirishni cheklaydigan bir qator jiddiy muammolarning mavjudligi bu ikki mintaqaviy integratsiya qilish va Afg'onistonda murosali tinchlikni o'rnatish maqsadida nostandart yechimlarni ishlab chiqish uchun mashaqqatli yo'lni bosib o'tish zarurligini ko'rsatib turibdi.

Afg'onistonda Pushtunlar eng yirik, uzoq tarixga hamda hokimiyatda katta mavqegaga ega etnik guruh sifatida nafaqat Afg'onistondagi eng qadimiy, eng katta guruh hisoblanadi, balki butun dunyoda ham eng yirik etnik guruhlardan biri sifatida ma'lum. Ayni patda, Afg'oniston aholisi o'ttiz to'qqiz yarim million bo'lib, umumiy aholining 42% ni pushtunlar tashkil etadi. Pushtunlar eng yirik etnik guruh, afg'on jamiyatining bir bo'lak sifatida mamlakatning ijtimoiysiy hayotida muhim o'rin tutadi. Pushtunlarning aksariyati sunniylar va ularning ijtimoiy hayoti yozlimagan "Pushtunvali" shonsharaf kodeksiga asoslangan.

Pushtunlar oddiy odamlarga qo'shilib hayot kechirishni istamaydilar, aksincha, qabilalarga ko'proq ahamiyat berishadi. Ularda uzoq yillardan beri mustaqil davlat "Mustaqil Pushtuniston" ni barpo etish g'yasi mavjud. "Mustaqil Pushtuniston" davlatini tuzish rasmiy islomobod uchun ulkan tahdid sifatida ko'riladi, chunki ehtimoliy pushtunlarning davlatini tuzilishi Pokistonning hududiy yahlidligiga putr yetkazadi.

Shu sababli ham davlat barpo etishga bo'lgan harakatning oldini olish nafaqat Afg'oniston siyosiy jarayonlarida, balki Pokiston siyosatining bosh mavzusiga aylandi.

Ta'kidlash joizki, bu yerda pushtunlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan foydalanishi, Islomobodning esa davlatning hududiy yaxlitligi tamoyilini asos qilib olishi bosh muammolardan biri hisoblanadi.

Afg'on siyosiy sahnasida afg'on pushtunlarining pokistonlik pushtunlarni qo'llab-quvvatlashining kuchayishi va AQSh kuchlarini Afg'onistonning xavfsizlik kuchlari, iqtisodiy sohasi va Lo'ya Jirg'ada pushtun vakillarining o'rnini oshirishi boshqa etnik guruhlar munosabatida o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Shu tariqa 2016-yildan 2024 yilgacha bo'lgan davrda etnoslararo munosabatlarni ichki siyosiy vaziyatni beqarorlashtiruvchi omil sifatida asosiy rolni o'ynashidan aynan unda istiqomat qiluvchi millatlar emas, balki ushbu millatlar orasida adovatni "eksport" qiluvchi tashqi kuchlar manfaatdor ekanligini ko'rish mumkin.

Ushbu to'siqlar so'nggi yillarda Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi o'zaro savdo-sotiqqa va Janubiy hamda Markaziy Osiyo o'rtasidagi mintaqaviy savdo-sotiqqa salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Masalan, Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi savdo hajmi 2017yildagi 1,5 milliard dollardan 2018-yilda 1 milliard dollargacha qisqardi va hozirgi kunda Janubiy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi savdo hajmida ham rivojlanirish ko'rsatkichlari kutilgan darajada emas.

Afg'oniston - Eron orqali Janubiy Osiyo mintaqasi davlatlari, xususan Hindiston bilan to'g'ridan-to'g'ri savdo aloqalariga kirishish imkoniyatini mavjud ekanligi. (Hindiston tomoni bugungi kunda Eronning Chobahor porti bilan Afg'onistonning Hajigak hududiga bog'lash maqsadida 900 km temir yo'l qurish taklifini bermoqda).

Shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligi eng katta tahdid soluvchi omillardan biri bu Afg'onistondan kirib keladigan narkotik moddlar savdosidir. Narkotrafik savdosi shubhasiz har ikki mintaqada xavfsizlikka rahna soluvchi eng jiddiy va o'ta xavfli bo'lgan omildir.

Birlashgan Millatlar tashkiloti tomonidan olib borilgan o'rganishlar natijasida berilgan statistikaga ko'ra Afg'onistondagi giyohvand moddalar savdosi beqarorlik va notinchlikning asosiy sabablaridan biridir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) 2016-yilgi hisobotiga ko'ra, noqonuniy afg'on afyun iqtisodiyotining taxminiy qiymati taxminan 2,8 milliard dollarni tashkil etadi, bu Afg'oniston umumiy YaIMning 13 foizini tashkil qiladi. Afg'onistondagi giyohvand moddalar savdosi pul bilan bog'liq bo'lib, bu biznesga ko'plab davlat va nodavlat sub'ektlari jalb qilingan.

Afg'on afyunining umumiy qiymati taxminan 61 milliard dollarni tashkil qiladi.

Daromadning katta qismi urush lordlari, narkotrafiklar, transmilliy tarqatuvchilar va jangarilarga tushadi. Bu Afg'onistondagi jangari guruhlarini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biridir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2018-yildagi hisobotiga ko'ra, afg'on toliblari har yili giyohvand moddalar savdosi, soliqqa tortish va tovlamachilikdan 450 million dollardan ortiq daromad olgan. Afg'onistondagi jangarilar hech qachon mablag' tanqisligini oldini oladi, bu esa ularga o'z terrorchilik faoliyatini to'xtovsiz amalga oshirish imkonini bergan. Bundan tashqari, mintaqaviy barqarorlik ta'minlash va xavfsizlikni o'rnatish uchun avvalo, Afg'oniston barqaror bo'lmog'li lozim. Shundagina buning mintaq xavfsiz bo'ladi.

Mintaqada va Afg'onistonda tinchlik bo'lishi uchun Pokiston va Afg'onistonning yaqinlashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Islomobod va Kobul chegarasi narkotik moddalar savdosi, qurol-yarog' kontrabandasi, noqonuniy savdo va jangarilarning harakatlanishi uchun ishlatiladi.

Ikkalasi ham davlatlar o'zaro kelishmovchiliklarni yengib o'tishlari, chegara nizolarini hal qilishlari, chegara xavfsizligini ta'minlashlari va mintaqaviy aloqa va hamkorlik uchun birgalikda harakat qilishlari keraklab etiladi.

Fors ko'rfazi va Markaziy Osiyo mintaqalari bilan bir vaqtda chegaradosh bo'lgan Janubiy Osiyo xavfsizlik chetida joylashgan Afg'oniston izolyator rolini o'ynashda davom etmoqda. Afg'oniston muammosi Janubiy Osiyo xavfsizlik dinamikasining o'zagida emas. Hindiston va Pokistonning Afg'onistondagi manfaatlari, birinchi navbatda, o'zlarining xavfsizlik intilishlari va ishonchsizlik tashvishlarining aksidir. Bir tomondan, ular bir-birining ta'sirini tekshirish, Afg'oniston tuprog'ida bilvosita va noan'anaviy taktikalar bilan bo'lsa-da, o'zlarining proksi urushini davom ettirish mantiqiy asosiga tayanadi. Pokiston uchun Afg'onistonga ta'sir qilish xavfsizlikning zaruriy sharti, Hindistonga qarshi strategik chuqurlikni saqlab qolish, Durand chizig'ining ochilishiga yo'l qo'ymaslik, Pushtunlarning birlashgan Pashtunistonga intilishlarini yo'q qilish, shuningdek, AQSh bilan iqtisodiy va harbiy hamkorlikni rivojlantirish imkoniyati sifatida ko'riladi. Hindiston uchun Afg'onistondagi iqtisodiy ta'sir mamlakatdagi jamoatchilik fikrini Pokistonga qarshi qaratib, mintaqadagi giyohvandlik va fundamental islom xavfidan o'zini izolyatsiya qilish bilan birga, uni mintaqadagi asosiy donor sifatida tan olish imkonini beradi.

Afg'oniston ikkita imperiya va ikkita mintaqani ajratib turuvchi davlatga aylandi.

Rossiya imperiyasining Sovet Ittifoqi sifatida qayta tuzilishi, shuningdek, Britaniya Hindistoni o'rnida mustaqil davlatlarning shakllanishi kabi omillar va o'zgarishlar aloqalarning tiklanishiga olib kelmadi, natijada Janubiy Osiyoning geosiyosiy bo'linishi sodir bo'ldi.

Afg'onistondagi 50 yil oldin boshlangan mojaro ma'lum darajada bu mamlakatning o'zaro yiroqlashishiga olib keldi. Aynan shu davrdan boshlab Afg'oniston Markaziy va Janubiy Osiyoni ajratib turuvchi to'siq bo'lib xizmat qilmoqda. Ayni paytda, Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlarining shakllanishi o'zaro manfaatli aloqalarning qayta tiklanishiga va mintaqalararo munosabatlarning qaytadan yangi bosqichda ko'tarilishiga olib keldi.

Ma'lumki Markaziy Osiyo Respublikalari okeanlardan uzilib qolgan ya'ni dengizga chiqish imkoni yo'q, janubiy yo'nalish geografik jihatdan dengiz portlariga eng qisqa va aniq yo'l hisoblanadi. Lekin bu masala yuzasidan Markaziy Osiyoda ko'plab murakkab muammolar mavjud bo'lib, bu asosan Afg'oniston bilan, undagi tolibon harakati bilan bog'liqdir. Markaziy Osiyoning xavfsizligi Afg'onistondagi xavfsizlik bilan chambarchas bog'liq ekanligini boshqa davlatlar ham ta'kidlab kelmoqda. AQShning Bosh generali AQSh harbiy havo kuchlari Markaziy qo'mondonligi qo'mondoni, general-mayor Jefri L.Xarijian fevral oyida Toshkent shahriga tashrif buyurgan edi. "Tashrif davomida AQShning Bosh generali so'zlariga ko'ra, AQSh va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlik Afg'onistondagi tinchlik va mintaqaviy xavfsizlikning kalitidir" degan edi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati maqsadlaridan kelib chiqqan holda, o'zaro munosabatlarda tenglik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlikni rivojlantirish, mintaqada va butun jahon miqyosida tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida, Afg'onistonda uzoq yillardan buyon davom etib kelayotgan urushni tinch yo'l bilan hal etish tarafdoridir.

Afgʻonistonda davom etayotgan ziddiyatli voqea-hodisalar dunyo ahli eʼtiborida boʻlib Afgʻonistonda xalqaro terrorchi guruhlar sonining kengayishi, zoʻravonlik va qon toʻkishlar, narkobiznesning barham topmayotgani – bularning barchasi mamlakatdagi vaziyatni jahon jamoatchiligi tomonidan inkor etilishiga yoʻl qoʻyib boʻlmasligini koʻrsatmoqda.

Tolibon Afgʻonistonda 2021-yil 15-avgustdan beri hukmronlik qilgan boʻlsada, bugungi kunda mamlakatda noaniqlik va terrorchilik tahdidlari saqlanib qolmoqda. Chunki Tolibon tomonidan tayinlangan hukumat haligacha hech bir davlat tomonidan tan olinmagan. Qolaversa, mintaqada davlatlar va turli guruhlar oʻrtasidagi ziddiyatlar sezilarli darajada kamaygan boʻlsa-da, terrorchilik tashkilotlari mavjud boʻlishda davom etmoqda. Shuningdek, afgʻonshunos ekspert Indua Saksena tolliblarning hokimiyatni qoʻlga olishining mintaq xavfsizligiga taʼsirini quyidagicha izohlaydi: “Afgʻoniston fuqarolik hukumatining qulashi butun Janubiy Osiyo uchun jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Tolibonning qayta tiklanishi butun mintaqada aqidaparast mafkura va fundamentalizmni qayta ishga tushiradi va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasiga ham tarqalishi mumkin. Tolibon mintaqadagi AlQoida va boshqa terrorchi guruhlar bilan aloqalarini qayta tiklashi mumkin. Yangi rejim Pokiston, Hindiston, Bangladesh, Shri-Lanka, Maldiv orollari va Myanmadagi radikal unsurlar va separatistik guruhlar uchun toza havo va koʻpayish uchun zamin yaratadi hamda mintaqalarning musulmon aholisi orasida oʻzining radikal Deobandi taʼsirini eksport qilishi mumkin. Tolibon Pokiston fundamentalistlari bilan yaqin munosabatlarga ega - bu Tolibonga mintaqada diniy mafkuralarini yoyishga yordam beradi. Mintaqaviy etnik guruhlar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik va Janubiy Osiyo mamlakatlari oʻrtasidagi gʻovakli chegaralar Tolibonning fundamentalistik mafkurasiga kirib borishi va tarqalishi uchun qulay boʻlar edi. Soʻnggi 30 yil ichida Afgʻoniston-Pokiston (Af-Pak) qoʻshilish joyi global miqyosdagi eng xavfli joylardan biri boʻlib, mintaqadagi terroristik guruhlar uchun xavfsiz boshpana va inkubator ekanligini isbotladi. Global tinchlik indeksi Afgʻonistonni soʻnggi toʻrt yil ichida eng beqaror va xavfli davlat deb baholadi. “Tolibon” boshqaruvining qaytishi va tashkilotning Af-Pak mintaqasidagi jangari guruhlarini qoʻllab-quvvatlashi Janubiy Osiyo mintaqasini katta xavf ostiga qoʻyadi va zoʻravonlik va qoʻrquvning kuchayishiga yoʻl ochadi. Tashkilotning hokimiyatga qaytishi tufayli yuzaga kelgan gumanitar inqiroz yana bir tashvish uygʻotadi, buni Kobul aeroportida davom etayotgan vaziyat koʻrsatib turibdi, mamlakatni tark etish istagida boʻlgan va qoʻshni davlatlarga xavfsiz yoʻl izlayotgan odamlar toʻlib ketgan.

Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, Gʻarb Afgʻoniston va Markaziy Osiyoga nisbatan notoʻgʻri hisob-kitob qilgandek. Chunki AQSh Osiyoning qoq markazida Xitoy va Rossiya Afgʻonistondan toʻsatdan chiqib ketganda ularni cheklab qoʻyadigan tahdid va betartiblik markazini yaratishni rejalashtirayotgani haqida gap bordi. Biroq, Rossiya-Ukraina urushi va Tayvan inqirozidan keyin mintaqaviy kuchlar muvozanati oʻzgardi. Shunday qilib, Yevropa Rossiyadan energiya olishni toʻxtatdi va Markaziy Osiyoga yuzlandi. Gʻarbiy kapital Hindistonga ustunlik bera boshladi.

Shunday qilib, Afgʻonistondan kelayotgan tahdidlar Gʻarb manfaatlariga zarar yetkazadi, chunki ular Markaziy Osiyo mamlakatlari va Hindistonga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Boshqacha aytganda, Gʻarb Afgʻonistonda oʻziga zarar keltiruvchi siyosat olib bormoqda, deb taxmin qilish mumkin.

Bevosita, Markaziy Osiyo mintaqasida ham tinchlik boʻlishi uchun Afgʻoniston tomonida barqarorlik hukm surishi kerak.

Chunki, Afg'oniston bevosita MO davlatlari: O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston bilan to'g'ridan to'g'ri chegaraga ega ekanligi, shuningdek o'xshash madaniyat, tarix va bir-biriga yaqin xalqlar ekanligi ham ikki tomonning umumiylikka yaqinlashtiradi.

Bugungi kunga kelib Afg'onistonda etnik tojiklar, o'zbeklar, turkmanlar, qirg'izlar va qazoqlar istiqomat qilib keladi. Shu sababli ham u yerda sodir bo'lgan har qanday voqea va xodisa bevosita beshta davlatga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Misol uchun, Afg'onisto va Tojikiston o'rtasidagi munosabatlarda Afg'onistonda istiqomat qiladiga tojiklar juda muhim rol o'ynaydi. "Tolibon" harakati vakillari e'lon qilingan vaqtinchalik hukumat tarkibida Afg'oniston tojiklari uchun hukumatdan faqat uchta o'rin berilishi mamlakatdagi ikkinchi eng katta etnik guruhi hisoblanib, mamlakat aholisining 25%ini tashkil etadi.

Ular asosan Afg'onistonning shimoli-janubiy viloyatlarida yashashadi va dariy hamda tojik tillarida so'zlashishadi. Afg'oniston tojiklari pushtunlar bilan siyosiy hokimiyatda boshqaruvni qo'lga olish borasida o'zaro raqobat olib borgan etnik guruh hisoblanadi.

Xususan, toliblar tomonidan hokimiyatni qo'lga kiritgan dastlabki davrida (1996-2001-yillar) boshqa etnik guruhlar singari Afg'oniston tojiklariga nisbatan ham o'ta keskin munosabatda bo'ladi. Shu sababli tojiklar toliblarning asosiy raqobatchisi bo'lgan "Shimoliy Alyans"ning harbiy-siyosiy kuchlarining asosini tashkil qilgan. "Shimoliy Alyans" Afg'oniston shimoli-sharqidagi Panjshir vodiysida faoliyat olib bordi. Nyu-York va Vashingtondagi 11-sentabr hujumlaridan keyin "Shimoliy Alyans" AQShning Afg'onistondagi asosiy ittifoqchisi bo'lib xizmat qilgan va 2001-yilning kuzida toliblarni mag'lub etishda muhim rol o'ynagan.

Bugungi kunda "Tolibon" hokimiyatni ikkinchi marotaba egallab olganidan so'ng eksi adovat yana avj oldi. Bu safargi pashtun-tojik etnik guruhlar o'rtasidagi konflikt Dushanbe rasmiy hukumati tomonidan toliblarning olib borayotgan sa'y-harakatlarini keskin tanqid qilinishi mojaroning ancha keskin ekanligidan dalolat beradi. Afg'oniston bilan 1300 kilometrlik chegara yaqinida Rossiya boshchiligidagi Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXShT) a'zolari qo'shinlari bilan birgalikda harbiy mashg'ulotlar o'tkazilishidan asosiy ko'zlangan maqsad ham toliblar bilan kelib chiqishi mumkin bo'lgan ehtimoliy mojaroga tayyor turish va Afg'oniston tojiklarinini qo'llab-quvvatlashidan dalolat beradi.

O'z navbatida, "Tolibon" harakati vakillari ham Afg'onistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan chegarasi bo'ylab taxminan 5000 jangchini joylashtirganligi ham garchi "Tolibon" harakati rasmiylari bu harakat mintaqa barqarorligiga hissa qo'shishini ta'kidlashsa-da ikki tomonlama munosabatlarning jiddiy ekanligini ko'rsatib qo'ydi. Toliblarning Afg'onistonning shimoli-sharqidagi Badaxshon va Taxor viloyatlarida "Lashkar-e Mansuri" nomi bilan tanilgan xudkush-terrorchilar batalyonlarini ham joylashtirgani Tojikistondagi xavotirlarni kuchaytirdi.

Ko'rinib turibdiki, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash Markaziy Osiyo uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki mintaqalararo loyihalarda Afg'oniston muhim o'rin tutishi ma'lum. Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik hayotiy ahamiyatga ega, ayniqsa, turli loyihalar energiya va koridorlarga asoslangan. Bundan tashqari, Afg'oniston Osiyo va Yevroosiyo taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan davlatdir. Markaziy Osiyo va Hindiston yevropaliklar uchun muhim tortishish markazlari sifatida paydo bo'layotgan bo'lsada, bu tahdidlar Yevropaga ham zarar yetkazishi haqida bahslashish mumkin.

Natijada, Afgʻonistondagi manba bilan ziddiyatning asosiy manbalari xorijiy aktyorlarning aralashuvi, mintaqaviy taʼsirni yaratish gʻoyasi va bu yoʻnalishdagi siyosatdir.

Koʻrib chiqilayotgan vaziyat iqtisodiy qiyinchiliklarga va rivojlanishga xizmat qiladigan loyihalarning oldini olishga olib keladi. Bundan tashqari, diniy va etnik oʻziga xoslikni suiisteʼmol qilish terrorchilik tashkilotlari uchun qulay sharoit yaratadi. Bularning barchasi mintaqaviy loyihalarni amalga oshirish va barqarorlikni taʼminlashga toʻsqinlik qilmoqda. Bir soʻz bilan aytganda, Qoʻshma Shtatlar Afgʻonistonni tark etib, butun Osiyo qitʼasi, ayniqsa, Markaziy Osiyo taraqqiyotiga putur yetkazmoqchi, mintaqadagi beqarorlik oʻchogʻini qoldirmoqchi boʻldi, deb hisoblar edi. Biroq Rossiya-Ukraina urushi yordamida AQSh Yevroosiyoga salbiy taʼsir koʻrsatadigan markaz yaratishga harakat qilgani aniq. Shu bois Afgʻonistonda xavfsizlikni taʼminlash butun mintaq va mintaqaviy loyihalar, jumladan, Yevroosiy o uchun muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa sifatida taʼkidlash joizki, Afgʻoniston Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyoning mintaqalararo aloqadorligi uchun kalit hisoblanadi. Afgʻonistonning mintaqadagi markaziy mavqei va xavfsizlik bilan bogʻliq vaziyat bu ikki mintaq oʻrtasidagi kelajakdagi hamkorlik va rivojlanishni belgilab beradi. Hozirda asosiy muammo Afgʻonistondagi beqarorlik va notinchlik boʻlib, uni imkon qadar tezroq hal qilish zarur. Afgʻoniston Tolibon harakatining qayta tiklanishi va mintaqadagi xavfsizlik dinamikasining oʻzgarishi Afgʻonistondagi xavfsizlik muammolarini yengish uchun koʻp qirrali strategiyani talab qiladi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI (REFERENCES)

1. Rhea Abraham. Politics of ethnicity in Afghanistan: Understanding the Pashtuns and the minor ethnic groups // Defence and diplomacy Journal Vol. 2 No. 2 2013 (January - March). – P. 79.
2. Boʻronov S.M. “Mozori Sharif-Hirot” va “Mozori Sharif-Kobul-Peshovar” temir yoʻl loyixalari SWOT tahlili. Mizo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali. – T., 2020. – B. 74.
3. “World Drug Report-2016” United Nations Office On Drugs and Crime. https://www.unodc.org/doc/wdr2016/WORLD_DRUG_REPORT_2016_web.pdf. – P. 26.
4. “The Global Afghan Opium Trade: A Threat Assessment” July 2011, United Nations Office On Drugs and Crime, <https://www.unodc.org/documents/data-and>
5. Shahrbanou Tadjbakhsh. South Asia and Afghanistan: The Robust India-Pakistan Rivalry. Peace Research Institute Oslo (PRIO). 2018. –P. 1.
6. Indu Saxena. Afghan Crisis:A Harbinger of Instability in South Asia (19.08.2021) <https://www.airuniversity.af.edu/JIPA/Display/Article/2739673/afghancrisis-a-harbinger-of-instability-in-south-asia/>
7. Abdurahmonov O.N. Afgʻoniston pushtunlari. TDSHU, – T.: 2021. –B. 11.
8. Abubakar Siddique. Hostilities Grow Between Taliban And Tajikistan Amid Border Closure, Truck Seizures. (May 19, 2022).
9. <https://www.rferl.org/a/afghanistantaliban-tajikistan-border-truck-seizures/31858508.html>